



## KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING MATN TARKIBINI BOG'LASHDAGI ROLI

Abdullayeva Kamola

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU

O'zbek tilshunosligi mustaqil tadqiqotchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10102069>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> November 2023

Accepted: 09<sup>th</sup> November 2023

Online: 10<sup>th</sup> November 2023

### KEY WORDS

*Ko'p ma'noli so'zlar, omonimlar, paronimlar, o'zbek grammatikasi, so'z boyligi, so'z birikmasi, til koloriti, sintaksis va h.k.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ko'p ma'noli so'zlarning matn tarkibini bog'lashdagi roli haqida atroflicha bayon qilinadi. Barchamizga ma'lumki, so'z ma'nolari ularni og'zaki tilda ifodalashimiz uchun turli xil ko'rinishlarda – ma'no ko'chishlarida hosil qilinadi. Ularning konteksti va aynan qaysi mavzuda ishlatilayotganiga qarab bir vaqtning o'zida bir necha ma'noni ifodalash xususiyati ham mavjuddir. Shu bilan birgalikda ko'p ma'noli so'zlarning omonimlardan farqli jihatlari haqida ham ilmiy va badiiy misollar keltirilib o'tiladi.*

O'zbek tili dunyoning boshqa tillari bilan solishtirganimizda ancha boy va go'zal til ekanligini anglaymiz. Chunki ba'zan bu tilda berilgan bir so'zdagi ma'nolar boshqa tillarda bir qancha gaplar orqali tashkil qilinishi mumkin. Albatta, omonim, paronim va sinonim tushunchalari hamma tillarda ham mavjud. Xususan, omonimlik va ko'p ma'noli so'zlarning o'rtasida farq mavjud. Omonimlikda bittagina so'zda bir necha bir-biriga o'xshamagan ma'nolar mujassam bo'ladi. Ko'p ma'noqlikda esa so'zning bir ma'nosi uning boshqa bir ma'nosiga o'xshab ketadi. Bu esa o'z o'rnida o'zbek tilida ma'no ko'chishi deb ham ataladi. Biz quyida aynan shu ma'no ko'chishining matn tarkibidagi o'rni haqida ham batafsil to'xtalib o'tganmiz.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'no sana-ladi. So'zning nutqda boshqa so'zlar bilan bog'lanib hosil qiladigan ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanadi.



Masalan: odamning qulog'i - o'z ma'no, qozonning qulog'i-ko'chma ma'noda. O'z ma'no va ko'chma ma'noli so'zlar birlashib ko'chma ma'noni hosil qiladi. Ko'p ma'noli so'zlar quyidagi ma'no ko'chish usullari orqali hosil bo'ladi. Bular: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik. Nutqimizda eng ko'p tarqalgan ma'no ko'chish turi metaforadir. Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ma'lum tashqi o'xshashlik asosida ko'chishidir. Masalan: tandirning og'zi birikmasida og'zi so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Metaforaning 3 xil ma'no ko'chish usuli mavjud. Narsaning narsaga ko'chishi: Misol: odamning og'zi-shishaning og'zi, odamning tishi -arraning tishi, odamning qulogi -qozonning qulog'i. Belgining belgiga ko'chishi: Shirin so'z -shirin xotira, tiniq suv -tiniq xotira, tez yurmoq -tez odam. Harakatning harakatga ko'chishi: Suv qizidi-suhbat qizidi, imorat cho'kdi-kayfiyati cho'kdi. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chishi metonimiya deyiladi. Misol: Navoiyni qo'lga oldim deganda Navoiy asarlarini, Bedilni o'qir edim deganda ham uning asarlarini tushunamiz. Samovarda o'tirdik-choyxona tushuniladi (samovarga o'tirib ko'ringchi kuyib qolasizku). Metonimiyaning bir necha turlari mavjud. Shaxs nomi va uning faoliyatiga aloqador metonimiyalar. Rentgen apparati (Rentgen shaxs ishlab chiqargan deyilishi kerak bo'ladi). Ford avtomobili (Ford ismli shaxs o'ylab topgan avtomobilga muallifning nomi berilgan.) Joy nomiga aloqador metonimiyalar. Zarafshon futbol komandasi (Zarafshonliklardan tashkil topgan futbol komandasi o'rnida). Metonimiyaning yana bir turida predmetning nomi shu predmetdan hosil bo'ladigan narsaga ko'chadi. Choy o'simlik-choy ichimlik, olma daraxt-olma meva. Metonimiya qisqartirishdir.

Sinekdoxa yunoncha - synekdoche birgalikda anglamoq, qo'shib fahmlamoq so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi. Sinekdoxa ikki xil usulda yuzaga chiqadi. Butun orqali qism:Uzukni qo'lga taqdi (qo'ligamas barmog'iga taqiladi). Ikkita chumchuq uchib kelib olchaga qo'ndi. (olchagamas olchanning shoxiga) Qism orqali butunni tushunish: bahor kelishi bilan tuyoqlar soni ko'payaboshlaydi.(bu yerda tuyoq orqali barcha tuyoqlilar nazarda tutilyapti).Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish deyiladi. Vazifadoshlik asosida ma'nosi ko'chayotgan so'zlarning asosan hammasi bitta vazifa bajarish uchun ishlatiladigan buyumlar yoki harakatlarni ifodalaydi. Masalan: Qushning qanoti-samalyotning qanoti. (bu yerdaqanot so'zi). Asosiy so'z qushning qanoti, tepada aytganimizdek qushning qanotidek samalyotning qanoti ham muvozanat saqlash uchun kerak. Bu ma'no ko'chishida asosiy sabab bajarayotgan vazifaning bir xilligi hisoblanadi. Omonimlar bu - aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi. Omonimlarni ikkinchi nomi shakldoshlardir. Masalan: soz-cholg'u asbobi, soz-puxta ma'qul, soz-inoq, o'zaro yaqin. Shakldosh so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab keta-di. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning ko'chma va o'z ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir. Omonimlarning quyidagi turlari mavjud. Leksik (lug'aviy) omonimlar so'z o'rtasidagi omonimlardir. Misol: Soch-a'zo, soch-sochmoq (harakat.) Frazologik (ibora) omonimlari ya'ni ko'chma ma'noli, ta'sirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi omonimlar. Misol: Boshga ko'tarmoq-e'zozlamoq, boshga ko'tarmoq-janjal qilmoq. Grammatik omonimlar ikki xil bo'ladi: a) Morfologik omonimlar qo'shimchalar o'rtasidagi omonimlardir.



Masalan: to'kin dasturxon (sifat yasovchi), ekin (ot yasovchi) qo'shimcha.b) Sintaktik omonimlarso'z birikmalari va gaplardagi omonimlardir.

Omonim va ko'p ma'noli so'zlar orasidagi farq shundaki, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari orasida aloqadorlik mavjud bo'ladi, Omonim so'zlarning orasida esa aloqadorlik mavjud bo'lmaydi. Ko'p ma'noli so'zlar qancha ko'p ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Omonimlar esa boshqa boshqa so'z bo'lgani uchun ularning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. Shakldoshlarda umuman bog'liqlik bo'lmaydi. Masalan: o't-maysa(ot so'z turku-mi), o't-olov (ot so'z turkumi), o't-jigardan ajralib chiquvchi sarg'ish, yashil ach-chiq suyuqlik (ot so'z turkumi), o't-o'tmoq 2-shaxs fe'lining buyruq mayli. Birdan ortiq ma'no anglatadigan so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlar polisemantik so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlarda bosh va ko'chma ma'no bo'ladi. So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'no sana-ladi. So'zning nutqda boshqa so'zlar bilan bog'lanib hosil qiladigan ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanadi. Masalan: odamning qulog'i-o'z ma'no, qozonning qulog'i-ko'chma ma'noda. O'z ma'no va ko'chma ma'noli so'zlar birlashib ko'chma ma'noni hosil qiladi. Ko'p ma'noli so'zlar quyidagi ma'no ko'chish usullari orqali hosil bo'ladi. Bular: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik. Nutqimizda eng ko'p tarqalgan ma'no ko'chish turi metaforadir. Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ma'lum tashqi o'xshashlik asosida ko'chishidir. Masalan: tandirning og'zi birikmasida og'zi so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Omonimlar bu - aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi. Omonimlarni ikkinchi nomi shakldoshlardir. Masalan: soz – cholg'u asbobi, soz – puxta ma'qul, soz – inoq, o'zaro yaqin. Shakldosh so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning ko'chma va o'z ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir. Omonimlarning quyidagi turlari mavjud.

- 1) Leksik (lug'aviy) omonimlar so'z o'rtasidagi omonimlardir. Misol: Soch-a'zo, soch-sochmoq(harakat.)
- 2) Frazelogik (ibora) omonimlari ya'ni ko'chma ma'noli, ta'sirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi omonimlar. Misol: Boshga ko'tarmoq-e'zozlamoq, boshga ko'tarmoq-janjal qilmoq.
- 3) Grammatik omonimlar ikki xil bo'ladi: a) Morfologik omonimlar qo'shimchalar o'rtasidagi omonimlardir. Masalan: to'kin dasturxon (sifat yasovchi), ekin (ot yasovchi) qo'shimcha. b) Sintaktik omonimlar so'z birikmalari va gaplardagi omonimlardir. So'z birikmalaridagi omonimlik: yolg'ondan hayron bo'lmoq (yolg'on gapdan hayron bo'lmoq), yolg'ondan hayron bo'lmoq (yolg'ondakamiga hayron bo'lmoq).

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, ma'no ko'chish yo'llari ilmiy jihatdan jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan hamin qadar o'rganilgan. Umuman olganda ko'p ma'noli so'zlarni o'rganish va tadqiq qilishda kelajakda o'zbek tilini yanada boyitishimiz va bu til imkoniyatlaridan to'liq foydalanishimiz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi desak aslo mubolag'a qilmaymiz. Negaki ko'p ma'noli so'zlarni kunlik nutqda ishlatish orqali biz suhbatdoshimizni tushuna olamiz va haminqadar yaxshi suhbatdosh bo'la olamiz. Ayniqsa ko'p ma'noli so'zlardan asarlar matnida foydalanish orqali nafaqat xalqimiz uchun xalqona mutolaa manbasi yaratiladi, balki asarlar orqali kelgusi avlod uchun ham tamaltosh bo'lib xizmat qiladi.



Mana shu o'rganilgan nazariy ma'lumotlar asosida o'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, ma'no ko'chishini ta'lim jarayonida o'quvchilarga tushuntirish, qo'llashni faollashtirish uchun ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan innavatsion va interfaol metodlardan foydalanish, ularni ishlab chiqish va ta'limjarayoniga tatbiq qilish kerak.

## References:

1. U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh. Raxmatuiliyev – Hozirgi o'zbek tili. Toshkent «O'zbekiston» nashriyoti – 1992 146-141b.
2. Shukurov Otabek Ona tili – Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi „Fan“ nashriyoti davlat korxonasi – 2019 . 512 b
3. Axmedova X., Abjalova M., Elov B. Omonim so'zlarni farqlashusullari. // O'zbek Milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari // . -42-45bb
4. Hamroyev M., Muhamedova D va boshqalar. Ona tili. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2007. – 276b
5. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.
6. Toshnazarova D., Ibragimova A. So'z birikmalari ta'rifiga yangicha yondashuv. Til va adabiyot ta'limi jurnali, 4-son. – Toshkent, 2020.
7. M Kurbanova, Hozirgi zamon o'zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar) 2002
8. Muhiddinova H., Xudoyberganova D. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
9. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
10. Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent. 2009. – 112b